



## **Turkiy davlatlar tashkiloti Bosh kotibining tabrigi**

---

Men Turkiy davlatlar tashkiloti (TDT) Bosh kotibi sifatida "Farg'oniy" Fazo Kompaniyasining ilk sun'iy yo'loshi FGN-100-d1ning fazoga muvaffaqiyatli uchirilgani munosabati bilan chin yurakdan tabriklayman. "Baykar" boshqaruv kengashi raisi Seljuk Bayraktar Janoblari boschchiligidagi erishilgan bu muvaffaqiyat Turkiy dunyoning ijodkorligi va qat'iyatini yana bir bor namoyish etdi.

TDT tomonidan Buxoroda tashkil etilgan "Yoshlar platformasi" tadbirida Bayraktar Janoblari Turkiy dunyoning iqtidorli yoshlari bilan ishtiyoq ila baham ko'rgan loyihaning amalgamoshganini ko'rganimdan bag'oyatda xursandman. Ildizlari uzoq asrlarga borib taqaladigan ushbu muvaffaqiyat butun Turkiy dunyo uchun katta g'urur va quvonch manbaidir.

Mazkur loyiha mushtarak ilmiy merosimizni qayta tiklash orqali kelajak avlodlarga ilhom bag'ishlab, Farg'oniy va Ulug'bek kabi allomalar merosini e'tirof etadi. Shu bilan birga, Turkiy dunyoning global fazo innovatsiyalari sohasidagi salohiyati yuksalib borayotganini namoyish etadi.

Bundan tashqari, bu muvaffaqiyat Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo davlatlar o'rtaida kosmik texnologiyalar sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish yo'lidagi muhim qadamdir. TDT kotibiyati ushbu muhim sohadagi hamkorlikning taraqqiy etishida o'z qat'iyatini yana bir bor tasdiqlaydi. Biz koinotni tadqiq qilish sohasida o'zaro imkoniyatlarimizni mustahkamlash yo'lida tajriba va texnik nou-xau almashish uchun platforma yaratishni maqsad qilganmiz.

Fikrlarim so'ngida, ushbu olamshumul loyihaning hayotga tatbiq etilishiga jalb qilinganlarni yana bir bor iliq tabriklayman.

**Kubanichbek Omuraliyev**

**Turkiy davlatlar tashkiloti Bosh kotibi**